

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 141.7(575.1):323.21

**YANGI O'ZBEKISTON VA FUQOROLIK JAMIYATI QURISHDA FARG'ONA
JADIDCHILIK MAKTAB NAMOYONDALARI IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARINING
AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ
ФЕРГАНСКОЙ ШКОЛЫ ДЖАДИДИЗМА В ПОСТРОЕНИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И
ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА**

**THE IMPORTANCE OF SOCIO-PHILOSOPHICAL VIEWS OF FERGANA JADID SCHOOL
REPRESENTATIVES IN BUILDING NEW UZBEKISTAN AND CIVIL SOCIETY**

G'ulomov Akramjon Baxromovich 
Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida Farg'ona jadidchilik maktabi namoyandalarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, ularning milliy o'zlikni anglash, ma'naviy yuksalish va mustaqil tafakkurni shakllantirishdagi o'rnini tahlil qilinib, jadidlarning g'oyalari zamonaviy demokratik tamoyillari, ularning erkin fikrlash, ta'lim islohotlari va fuqarolik ongini rivojlantirishdagi ahamiyati bilan bog'liq holda yoritilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются социально-философские взгляды представителей Ферганской джадидской школы в процессе построения гражданского общества в условиях Нового Узбекистана, их роль в формировании национального самосознания, духовного роста и независимого мышления, освещаются идеи джадидов в связи с современными демократическими принципами, их значением в развитии свободного мышления, образовательных реформ и гражданского сознания.

Abstract

This article analyzes the socio-philosophical views of the representatives of the Fergana Jadid school in the process of building a civil society in the conditions of New Uzbekistan, their role in the formation of national identity, spiritual growth, and independent thinking, and highlights the ideas of the Jadids in connection with modern democratic principles, their significance in the development of free thinking, educational reforms, and civic consciousness.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, fuqarolik jamiyati, jadidchilik, Farg'ona jadidlari, milliy o'zlik, ma'naviyat, tafakkur, islohot.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, гражданское общество, джадидизм, ферганские джадиды, национальное самосознание, духовность, мышление, реформа.

Key words: New Uzbekistan, civil society, Jadidism, Fergana Jadids, national identity, spirituality, thinking, reform.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yangi bosqichi sifatida “Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi jamiyatda demokratik qadriyatlar, fuqarolik jamiyati institutlari va ma'naviy yangilanishni rivojlantirishni ta'minlashni ko'zda tutadi. Shu jarayonda, tarixiy tajriba va milliy g'oya, ayniqsa Farg'ona **vodiysi jadidchilik maktabi namoyandalarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari**, zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. Jadidlar faolligi, ularning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari, xalqni ma'rifat bilan uyg'otish harakatlari **bugungi demokratik va fuqarolik prinsiplariga mos keladigan tajriba desak mubolag'a bo'lmaydi**. Shu bois, ularning qarashlarini o'rganish va amaliy jihatlarini aniqlash bugungi ilmiy va ijtimoiy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi jadidchiligi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan Yangi O'zbekiston va fuqarolik jamiyati uchun asosiy ilhom manbai hisoblanadi. Ularning merosi yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi, demokratik qadriyatlarni o'rganishi va jamiyatni modernizatsiyalashda dolzarbligini ta'kidlash mumkin. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston hududida milliy uyg'onish jarayonida shakllangan ijtimoiy-ma'naviy harakat bo'lib, u o'zbek

jamiyatida **ma'rifat, ta'lim va milliy o'zlikni rivojlantirishga** qaratilgan, yangi turdagi pedagogika va ma'naviy g'oyalarni ilgari surdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Farg'ona vodiysi jadidchiligi, ayniqsa, **ma'naviy uyg'onish va ijtimoiy modernizatsiyada** yetakchi rol o'ynadi. Hududdagi bir qancha maktablar, gazetalar, risolalar va jamiyatlar orqali ular aholining bilim va ongini oshirishga harakat qilishdi. Misol uchun, **Islomxo'ja, Sultonxo'ja va boshqa faol namoyondalar** o'z faoliyati davomida xalqni ta'lim va ma'rifatga jalb qilishga katta hissa qo'shgan. Tarixiy kontekstga ko'ra, Farg'ona vodiysi jadidchiligi **Sovet hukumatining o'rnatilishidan oldin** o'zining mustaqil faoliyatini olib borgan va jamiyatdagi ma'naviy-siyosiy yangilanishlarga zamin yaratgan. Ularning faoliyati milliy uyg'onish, fuqarolik ongini rivojlantirish va milliy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Farg'ona vodiysi jadidchilarining ijtimoiy qarashlarida bir nechta asosiy yo'nalishlar mavjud bo'lib, unda, **fuqarolik va jamiyat ongini shakllantirish**, jadidlar ta'lim orqali yoshlarni jamiyatdagi mas'uliyatga o'rgatish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollikka jalb qilishga intilgan, ular jamiyatda tenglik, inson huquqlari va milliy uyg'onish printsiplarini targ'ib qilgan. Bu qarashlar zamonaviy fuqarolik jamiyati qadriyatlariga to'g'ri keladi. Ularning ijtimoiy faoliyati orqali hududda yangi pedagogik metodlar, jamiyatning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi tashabbuslar yuzaga kelgan.

"XXI asrga kelib, shubhasizki, buyuk, uzoq va yaqin tariximizni o'rganish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekistonni qurishda tarixning o'zni haqida fikr bildirar ekanlar "Yangi O'zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir"[1,76.]. Ma'lumki, XIX asr oxiri va XX asr boshida yoyilgan ma'rifatparvarlik harakati chor Rossiyasi tobeligidagi Turkiston o'lkasiga ham kirib kela boshladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida jadidchilik harakati to'g'risida alohida to'xtalib, jumladan shunday dedi: "Ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar[2,87.]. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar" [3,88.], – deya ta'kidlagan edilar. Shuningdek, Yurtboshimiz raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida bugungi jamiyatimiz oldida turgan eng muhim masalalar ro'yi-rost tahlil etilib, ko'p yillardan buyon ma'naviy hayotda o'z yechimini kutib turgan muammolarni uzil-kesil hal qilishning dadil amaliy qadamlarini tashlab berdi desak aslo adashmagan bo'lamiz. Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida tarixga, jadid taraqqiyparvarlarining eng nozik va tahlikali zamonda maydonga chiqib, vatan, millat uchun jasorat ko'rsatganliklariga alohida e'tibor qaratdilar. "Davlatimiz rahbarining ezgu tashabbusi bilan 2024-yilning ilk kunida "Jadid" gazetasi chop etildi. Ushbu nashr Vatan va xalq manfaatlarini yo'lida jon fido qilgan millat oydinlari – jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini keng targ'ib etishda o'ziga xos tafakkur maydoni bo'lib xizmat qilishi"[4,56.], e'tirof etiladi.

"Jadid" so'zi "yangi", "yangilik" ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noning o'ziyoq jadid bobolarimizning Turkiston o'lkasiga yangiliklar olib kirishni maqsad qilganliklarini tasdig'i bo'la oladi. Lekin baxtga qarshi odamzod tarixida hech ko'rinmaganki, bir maromda kechayotgan hayotni o'zgartirishga urinish katta qarshilikka uchramagan bo'lsin. Haqiqat shundaki, jamiyat va inson hayotining bir maromda kechishi, ertami-kechmi, albatta, tanazzulga olib keladi. Shuning uchun jadidlarimiz jamiyat va inson hayotida kecha boshlagan tanazzulga qarshi kurashish yoki uning oldini olish uchun yangi g'oyalar zarur degan xulosaga keldilar. Afsuski, jamiyatda tanazzulni o'z boshidan kechirayotgan, shunday hayotga ko'nikib qolgan ayrim insonlar jadid ma'rifatparvarlarining o'ta muhim, insoniy va hayotbaxsh g'oyalarga tish-timoqlari bilan qarshi chiqdilar.

Jadid ziyolilarimiz dunyoning turli burchaklaridagi taraqqiyot, yangiliklar uchun olib borilgan harakatlar tajribasiga tayanishga harakat qilganlar hamda ushbu g'oyalarni milliy qadriyatlarimizga moslashtirib taraqqiyot yo'limizni yaratishga intildilar. Mustamlakachilik va zulmga qarshi kurashning

FALSAFA

bosh g'oyasi ana shu murakkab yo'lda shakllanib, sayqallanib bordi. Jadid ma'rifatparvarlarimiz ham mana shunday umuminsoniy g'oyalar, fikrlarni keng jamoatchilikka singdirishga, shu yo'l bilan jamoatchilik fikrini o'zgartirishga harakat qilishdi.

MUHOKAMA

Jadidchilikning tariximizda tutgan ahamiyati va o'rnini bir nechta ustuvor jihatlarida ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, ular mustaqillik milliy mafkurasiga asos yaratdilar.

Ikkinchidan, ular g'aflat uyqusida yotgan mazlum xalqni uyg'otdilar, ozodlik, milliy g'urur, buyuk ajdodlarimizning boy madaniyati haqida baralla so'zladilar, unutilayozgan qadriyatlar to'g'risida jar soldilar.

Uchinchidan, jadid ma'rifatparvarlarimiz jamiyatda yetilib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilishda tadrijiy (bosqichma-bosqich) islohot yo'li bilan hal qilish usullarini ishlab chiqdilar.

To'rtinchidan, ijtimoiy-davriy tuzum o'zgarishlarining eng makammal, samarali yo'lini taklif qildilar va mustamlakachilik tartibotini yo'q qilishga harakat qildilar. Chor Rossiyasi tomonidan amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosati jamiyatdagi muammolarni hal qilishda hech qanday ijobiy sifatlarga ega emas edi desak o'ylaymanki adolatdan bo'ladi. Aksincha, Chor amaldorlari ziyolilarimizga imkon qadar ko'proq tazyiq o'tkazishga va shu orqali o'zlarining chirkin g'oya hamda maslaklarini saqlab qolishga harakat qildilar. Shuning uchun ham jamiyatning ziyoli vakillari mamlakatni qoloqlik botqog'idan olib chiqish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishning yagona yo'lini ma'rifatdan izlay boshladilar. Ilg'or ziyolilarning bu intilishlari qisqa muddat ichida mintaqadagi ma'rifatparvarlikni katta g'oyaviy hamda nazariy oqimga aylantirilishga intildilar va o'z hissalarini qo'shdilar. Ma'rifatparvarlik harakatini mazmun-mohiyatiga ko'ra bir nechta bosqichlarga ajratsak xato bo'lmaydi.

Birinchi bosqichida mavjud ijtimoiy tuzumni tanqid qilishga, kamchiliklarini ochib tashlashga katta e'tibor qaratdilar, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy qoloqlikdan qutulishning yagona yo'li ma'rifat bilan ekanligi chuqur tahlillar asosida ochib berildi.

Ikkinchi bosqichda esa, ma'rifatparvarlik g'oyalarini xalq orasida targ'ib qilish ishlariga keng e'tibor qaratildi. Bunda jadid ziyolilari harakatining ahamiyati nihoyatda katta bo'ldi.

Milliy ma'rifatparvarlik harakati bo'lgan ziyolilarimizning bu intilishlariga tarixchi olimlarimiz, faylasuflarimiz tomonidan juda yuqori baho berilgan va berilmoqda. Jumladan, "Jadidchilik – jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, xususan ilg'or ilm-fan, madaniyat-ma'naviyatga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga asoslangan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy qoloqlikka, Mustamlakachilik istibdodiga qarshi, milliy mustaqillikni barqarorlashtirishga qaratilgan demokratik harakat edi"[5,64.] – deya ta'kidlaydilar.

Ma'naviy hayotni yuksaltirishda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, dunyoqarashi, tarixiy o'tmishimizni, milliy qadriyatlarimizni anglash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar sirasiga aylandi. Jadidlarning ilmiy faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad – bu xalqni, yoshlarni bilimli va fikrli kadrlar tayyorlashga harakat qilishgan. Buning uchun dastlab ular o'zlarining yonidan yangi usul maktablari ochishgan, yangi darsliklar yaratishgan. Keyinchalik esa, maktabda o'quvchilar soni ortganda maktab o'quvchilarining ota-onalari tomonidan to'lanadigan pullar evaziga maktablar faoliyat yuritgan. Nafaqat yurtimiz, balki Farg'ona vodiysida ham jadidchilik harakatlari, yangi usul maktablarini ochilishi, darsliklar yaratilishiga sabab bo'lgan. Aynan bunga misol qilib shuni aytsak bo'ladiki, Namangan hududida 1907- yilda yangi usul maktabi tashkil etilib, bevosita mashhur o'zbek ma'rifatparvari Is'hoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat nomi bilan bog'liq bo'lgan. To'raqo'rg'onga taklif etilgan Husayin Makayev Ibrat tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktabida mahalliy aholi bolalarini o'qita boshlagan.

Yangi usulda tashkil etilgan maktabda uning faoliyati tezda o'z samarasini berib, mahalliy aholi bolalarining savodi chiqqan. Bu hol uning obro'sini yanada oshishiga sabab bo'ladi. Is'hoqxon Ibrat Husayin Makaeyvning faoliyatiga quyidagicha baho beradi: "Qozon tarafidan bir muallim jalb etub, maktab qilib berdim. Maktabning qushodig'a (tashkil bo'lganiga) uch oy bo'lg'ani yo'q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar, o'n beshta odamlar "alif nima?" degan savolina "kaltak" deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurg'an bo'ldilar" deya fikr bildirgan. Husayin Makayev va Abdulrauf Shagidullin birgalikda Namanganda maktab uyushtirib, o'zbek va tatar bolalarini o'qitib, ta'lim sohasiga katta hissa qo'shgan. Namanganlik marifatparvarlar ta'lim berish sohasida yuqori natijalarga erishgan. Bu haqida o'sha yillarda o'qituvchilik qilib nafaqaga chiqqan

Yo'ldosh Najmiddinov o'z esdaliklarida quyidagilarni yozib qoldirgan: "1910-yillarda Namanganda yangi maktab tashkil bo'ldi. Dastavval Husayn Makayev degan tatar kishi kelib, yangi usuldagi maktab ochganda, shaharda duv-duv gap tarqaydi: Makayev degan tatar kelib, yangi usulda maktab ochib, to'rt yilda o'qish va yozishni, hisobni o'rgatib, mulla qilayotganmish. O'qigan bolalardan bir so'm pul olar emish. Bolalarni urmasdan, odobli qilib o'qitarmish" [5,64.] deya ma'lumotlar keng yoyilgan. 1911-yilga kelib o'lkada Yangi usul maktablari soni 63 taga, ular o'qiydigan bolalar 4100 nafarni tashkil etganligini e'tirof etish mumkin.

Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo'lib, 1-sinfda bolalarga o'qish va yozish, 2-sinfda tajvid, hisob, 3-sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o'rgatilgan. 1900-yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o'quvchilaridan imtihon olingan [6.73]. O'quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekovning yozganidek: "...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to'g'ridur..." [7.74].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Farg'ona jadidchilik maktabi namoyandalari millatni uyg'otish, ma'naviyatni tiklash va jamiyatni yangilash g'oyalarini ilgari surganlar. Ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlari Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan bevosita uyg'unlashadi.

Bugungi fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida jadidlarning:

-erkin fikrlash,

- ta'lim orqali islohot,

-ma'naviy poklanish,

-milliy o'zlikni anglash kabi tamoyillari dolzarbligini yo'qotmagan. Shu bois, ularning merosini chuqur o'rganish O'zbekistonning yangi davr falsafasini boyitadi va jamiyatni ma'naviy jihatdan yuksaltiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M., "Yangi O'zbekiston Demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda", "O'qituvchi" MU, 2021.
2. Iqbol Mirzo. "Birlashmoq davri", Jadid adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazetasi. 2024-yil 1-yanvar. №1.
3. Choriyev A., Choriyev S. Renessans davri Yevropa falsafasi. T.: Tafakkur qanoti, 2015.
4. Қосимов Б. Маслакдошлар (Бехбудий, Ажэий, Фитрат). –Т.: Шарк, 1994.
5. Quvonova F. Jadid adabiyoti namoyondalari. Toshkent. "Yoshlar matbuoti". 2023.
6. Ахмедов С. Иулбошчи. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. –Т.: "Маънавият", 2003.
7. Xolnazarova Sh, Xolnazarova F, Xolnazarov N. Tarixiy shaxslar hayotidan lavhalar. "Farg'ona nashriyoti". 2014.
8. Malcolmson, Scott. Empire's Edge: Travels in South-Eastern Europe, Turkey and Central Asia. Verso, 1995.